

SHAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA ISHLASH SIYOSATI

1. Umumiy qoidalar

- Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha ushbu siyosat O'zbekiston Respublikasining 02.07.2019 yildagi O'RQ-547-sonli «Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida»gi qonuni talablariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda «Anglesey Food» MChJ XK (keyingi o'rinlarda – «Operator») shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash tartibini va shaxsiy ma'lumotlarining xavfsizligini ta'minlash choralarini belgilaydi.
- **1.1.** Operator o'z faoliyatini amalga oshirishning eng muhim maqsadi va sharti sifatida uning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashda inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga rioya qilish, shu jumladan shaxsiy hayotning dahlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish huquqlarini himoya qilishni belgilaydi.
- **1.2.** Operatorning shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga oid ushbu siyosati (keyingi o'rinlarda – Siyosat) Operator tomonidan <https://korzinka.uz> veb-saytiga tashrif buyuruvchilar, Korzinka mobil ilovasi foydalanuvchilari, Yagona murojaatlar markazining (keyingi o'rinlarda – YMM) ma'lumot kiosklari hamda Shikoyat va takliflar kitobi foydalanuvchilari haqida olinishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlarga nisbatan qo'llaniladi.

2. Siyosatda ishlatiladigan asosiy tushunchalar

- **2.1.** Shaxsiy ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash – shaxsiy ma'lumotlarni hisoblash texnikasi vositalari yordamida qayta ishlash;
- **2.2.** Shaxsiy ma'lumotlarni blokirovka qilish – shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni vaqtincha to'xtatish (qayta ishlash shaxsiy ma'lumotlarni aniqlashtirish uchun zarur bo'lgan holatlardan tashqari);
- **2.3.** Veb-sayt – grafik va axborot materiallari, shuningdek EHM va ma'lumotlar bazalari uchun dasturlar to'plami bo'lib, ularga Internet

tarmog'idagi <https://korzinka.uz> tarmoq manzilida ularga erkin kirish imkoniyatini ta'minlaydi;

- **2.4.** Shaxsiy ma'lumotlarning axborot tizimi – ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan shaxsiy ma'lumotlar va ularning qayta ishlanishini ta'minlovchi axborot texnologiyalari va texnik vositalar to'plami;
- **2.5.** Shaxsiy ma'lumotlarni egasizlashtirish – qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanmasdan shaxsiy ma'lumotlarning muayyan Foydalanuvchi yoki boshqa shaxsiy ma'lumotlar sub'yektiga tegishli ekanligini aniqlash imkonini bartaraf qiladigan harakatlar;
- **2.6.** Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash – avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki bunday vositalardan foydalanmasdan shaxsiy ma'lumotlar bilan bajariladigan har qanday harakat (operatsiya) yoki harakatlar (operatsiyalar) majmui, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, yozib olish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), olish, foydalanish, uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish), egasizlashtirish, blokirovka qilish, o'chirish, yo'q qilish;
- **2.7.** Operator – shaxsiy ma'lumotlarni mustaqil ravishda yoki boshqa shaxslar bilan birgalikda shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni tashkil qiluvchi va (yoki) amalga oshiruvchi, shuningdek shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlarini, qayta ishlanadigan shaxsiy ma'lumotlar tarkibini, shaxsiy ma'lumotlar bilan bajariladigan harakatlar (operatsiyalar)ni belgilovchi davlat organi, mahalliy boshqaruv organi, yuridik yoki jismoniy shaxs;
- **2.8.** Shaxsiy ma'lumotlar – <https://korzinka.uz> veb-sayti, Korzinka mobil ilovasi foydalanuvchisiga, YMMning ma'lumot kiosklariga va Shikoyat va takliflar kitobiga bevosita yoki bilvosita aloqador har qanday ma'lumot;
- **2.9.** Foydalanuvchi – barcha <https://korzinka.uz> veb-saytiga tashrif buyuruvchilar, Korzinka mobil ilovasi foydalanuvchisi, YMM ma'lumot kiosklari hamda Shikoyat va takliflar kitobidan foydalanuvchilar;

- **2.10.** Shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etish – shaxsiy ma'lumotlarni muayyan shaxsga yoki muayyan doiradagi shaxslarga oshkor qilishga qaratilgan harakatlar;
- **2.11.** Shaxsiy ma'lumotlarni tarqatish – shaxsiy ma'lumotlarni noaniq doiradagi shaxslarga oshkor etishga (shaxsiy ma'lumotlarni uzatishga) yoki cheklanmagan doiradagi shaxslarni shaxsiy ma'lumotlar bilan tanishtirishga qaratilgan harakatlar, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida shaxsiy ma'lumotlarni e'lon qilish, axborot va telekommunikatsiya tarmoqlarida joylashtirish yoki boshqa har qanday yo'l bilan ularni olish imkoniyatini berish;
- **2.12.** Shaxsiy ma'lumotlarni yo'q qilish – shaxsiy ma'lumotlar axborot tizimida keyinchalik shaxsiy ma'lumotlar mazmunini tiklash imkoniyati bo'lmagan holda shaxsiy ma'lumotlarni qaytarib bo'lmaydigan tarzda yo'q qiladigan va (yoki) moddiy shaxsiy ma'lumotlar tashuvchilarini yo'q qiladigan har qanday harakatlar.

3. Operator Foydalanuvchining quyidagi shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashi mumkin:

- **3.1.** FISh;
- **3.2.** Tug'ilgan kuni;
- **3.3.** Faoliyat turi;
- **3.4.** Oilaviy ahvoli;
- **3.5.** Oila a'zolarining soni;
- **3.6.** Elektron manzil;
- **3.7.** Telefon raqamlari;
- **3.8.** Shuningdek, saytda internet-statistika xizmatlaridan (Yandex Metric va Google Analytics va boshqalar) foydalangan holda tashrif buyuruvchilar to'g'risidagi egasizlashtirilgan ma'lumotlar (shu jumladan "cookie" fayllar) to'planadi va qayta ishlanadi.
- **3.9.** Yuqorida sanab o'tilgan ma'lumotlar Siyosatning keyingi matnida umumiy tushuncha bilan birlashtirilgan — Shaxsiy ma'lumotlar.

4. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash maqsadlari

- **4.1.** Foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashning maqsadi – Foydalanuvchini SMS va push xabarlar yuborish orqali xabardor qilish; Foydalanuvchiga veb-saytdagi mavjud xizmatlarga, ma'lumotlarga va/yoki materiallarga kirish huquqini berish; talabnoma asosida teskari aloqani taqdim etish.
- **4.2.** Operator, shuningdek, Foydalanuvchiga yangi mahsulotlar va xizmatlar, maxsus takliflar va turli hodisalar to'g'risida xabarlarni yuborish huquqiga ega. Foydalanuvchi har doim Operatorga istalgan rasmiy aloqa kanallari orqali «Yangi mahsulotlar va xizmatlar va maxsus takliflar haqidagi xabarlardan voz kechish» belgisiga ega murojaatni yuborish orqali ma'lumot olishdan voz kechishi mumkin.
- **4.3.** Foydalanuvchilarning internet-statistika xizmatlari yordamida yig'iladigan egasizlashtirilgan ma'lumotlari Foydalanuvchilarning saytdagi xatti-harakatlari to'g'risida ma'lumot to'plash, saytning sifati va uning mazmunini yaxshilash uchun xizmat qiladi.

5. Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashning huquqiy asoslari

- **5.1.** Operator Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini, faqat ular Foydalanuvchi tomonidan mustaqil ravishda <https://korzinka.uz> saytida, Korzinka mobil ilovasida, YMM ma'lumot kiosklarida hamda Shikoyatlar va takliflar kitobida joylashtirilgan maxsus so'rovnomalar/shakllar vositasida to'ldirilganda va/yoki yuborilgandagina qayta ishlaydi. Foydalanuvchi tegishli so'rovnomalarni/shakllarni to'ldirish va/yoki Operatorga o'z shaxsiy ma'lumotlarini yuborish orqali ushbu Siyosatga o'zining to'liq va aniq roziligini bildiradi.
- **5.2.** Operator Foydalanuvchi haqidagi egasizlashtirilgan ma'lumotlarni, agar Foydalanuvchi brauzerining sozlamalarida bunga ruxsat etilgan ("cookie" fayllarni saqlash va JavaScript texnologiyalaridan foydalanish yoqilgan) bo'lsa qayta ishlaydi.

6. Shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, saqlash, uzatish va boshqa turda qayta ishlash tartibi

- Operator tomonidan qayta ishlanadigan shaxsiy ma'lumotlarning Xavfsizligi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari talablariga to'liq rioya qilish uchun zarur bo'lgan huquqiy, tashkiliy va texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ta'minlanadi.
- **6.1.** Operator shaxsiy ma'lumotlarning saqlanishini ta'minlaydi va vakolat berilmagan shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarga kirishini bartaraf qilish uchun barcha mumkin bo'lgan choralarni ko'radi.
- **6.2.** Foydalanuvchi korzinka.uz veb-saytida, Korzinka mobil ilovasida ro'yxatdan o'tib, YMM ma'lumot kiosklarida hamda Ariza va takliflar kitobini to'ldirib, ro'yxatdan o'tish vaqtida va undan so'ng taqdim etilgan Foydalanuvchi ma'lumotlarini Operator, shuningdek, uning izni bilan uchinchi shaxslar tomonidan qayta ishlanishiga roziligini bildiradi. Operator buyrug'iga binoan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlovchi Shaxs O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi 547-sonli Qonunida nazarda tutilgan qoida va tamoyillarga amal qilishi shart.
- **6.3.** Shaxsiy ma'lumotlarda noaniqliklar aniqlanganda, Foydalanuvchi Operatorga istalgan rasmiy aloqa kanallariga, shuningdek, Operator pochta manziliga yozma murojaat bildirish, «Shaxsiy ma'lumotlarni yangilash» belgisiga ega xabarni yuborish orqali ularni mustaqil ravishda yangilashi mumkin.
- **6.4.** Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash muddati cheklanmagan. Foydalanuvchi istalgan vaqtda Operatorga istalgan rasmiy aloqa kanallari, shuningdek, Operator pochta manziliga yozma murojaat bildirish, «Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilikni bekor qilish» belgisiga ega xabarni yuborish orqali shaxsiy ma'lumotlarining qayta ishlanishiga o'z roziligini qaytarib olishi mumkin.

7. Yakuniy qoidalar

- **7.1.** Foydalanuvchi istalgan rasmiy aloqa kanallari orqali Operatorga murojaat qilib, o'z shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga aloqador barcha qiziqtiruvchi savollar bo'yicha tushuntirishlar olishi mumkin.

- **7.2.** Operatorning shaxsiy ma'lumotlar Operatori sifatidagi boshqa huquq va mas'uliyatlari shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi mavjud O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.
- **7.3.** Operator istalgan vaqtda mavjud Shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash Siyosatiga shaxsiy ma'lumotlar subyekti / Foydalanuvchi ruxsatisiz o'zgartish kiritishi mumkin.
- **7.4.** Ma'lumotlarni qayta ishlash Siyosatining yangi tahriri, ma'lumotlarni qayta ishlash Siyosatining yangi tahririda boshqa bir, eski sana nazarda tutilmagan taqdirda, Operator saytiga joylanganidan boshlab kuchga kiradi.
- **7.5.** Ushbu hujjatda Operator tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash siyosatidagi har qanday o'zgarishlar aks ettiriladi. Siyosat yangi versiya bilan almashtirilgunga qadar muddatsiz amal qiladi.
- **7.6.** Siyosatning amaldagi versiyasi Internetda <https://korzinka.uz/privacy-policy> sahifasida unga erkin kirish imkoniyati berilgan holda joylashtirilgan.

Operator: «Anglesey Food» MChJ XK

Yuridik manzil: 100066, Toshkent sh., Turob To'la ko'ch, 57-uy.

Pochta manzili: 100015, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li, 120-uy

INN: 202 099 756

Bog'lanish uchun ma'lumot:

Telefon: +99878 140 14 14

Telegram: https://t.me/korzinka_uz

Facebook: <fb.com/korzinkauz>

Instagram: <instagram.com/korzinkauz>